



ANDIJON VILOYATI STATISTIKA BOSHQARMASI



*2024- yil yanvar - mart oylari
uchun dastlabki ma'lumot*

ANDIJON VILOYATI TASHQI SAVDO AYLANMASI

*Tashqi iqtisodiy faoliyat va savdo
statistikasi bo'limi:
74 228-30-37*



TASHQI SAVDO AYLANMASI



Mamlakatimizda olib borilayotgan iqtisodiy islohotlar xorijiy davlatlar bilan savdo aloqalarining jadal o'sishiga xizmat qilmoqda. Xususan, mamlakatning eksport salohiyatini oshirish bo'yicha qabul qilingan qarorlar mahalliy kompaniyalarga tashqi bozorlarda ko'proq tajriba orttirishga imkon beradi. Pirovardida ular jahon savdosida raqobatdosh ustunlikka ega bo'ladi.

Viloyatda bu borada so'nggi yillarda amalga oshirilayotgan eksportni rag'batlantirish, importni optimallashtirish va umuman olganda tashqi savdo muvozanatini ta'minlash maqsadida amalga oshirilgan chora-tadbirlar natijasida, 2024- yil yanvar-mart oylarida viloyatning tashqi savdo aylanmasi (matnda TSA) 1 132,1 mln. AQSh dollariga yetdi va 2023- yilning yanvar-mart oylariga nisbatan 94,2 mln. AQSh dollariga yoki 7,7 % ga kamaydi.



TASHQI SAVDO AYLANMASI

(yanvar - mart, mln. AQSh dollari)



Tashqi savdo aylanmasi

2024- y.: **1 132,1** -92,3 %

(2023- y.: **1 226,4**)



Saldo

2024- y.: **-591,5** (2023- y.: -670,0)




Eksport

2024- y.: **270,3** -97,2 %

(2023- y.: **278,2**)

TSA dagi ulushi, % da

23,9



Import

2024- y.: **861,8** -90,9 %

(2023- y.: **948,2**)

76,1













Tashqi savdo aylanmasi – muayyan davr uchun mamlakat eksporti va importi qiymatining miqdori hisoblanadi. Tovarlarining tashqi savdo statistikasi O‘zbekiston Respublikasi bojxona hududiga olib kirish (import) yoki O‘zbekiston Respublikasi bojxona hududidan olib chiqish (eksport) natijasida mamlakat material resurslari zaxiralari qo‘shiladigan yoki ulardan ayirib tashlanadigan tovarlar hisobini tashqi savdo umumiy hisob tizimi asosida yuritiladi.

TSAda eksport hajmi 270,3 mln. AQSh dollariga (2,8 % ga kamaydi) va import hajmi 861,8 mln. AQSh dollariga (9,1 % ga ko‘paydi) yetdi. Hisobot davrida -591,5 mln. AQSh dollari qiymatida manfiy tashqi savdo balansi qayd etildi.



ANDIJON VILOYATI TASHQI SAVDO AYLANMASIDA ENG YUQORI ULUSHGA EGA BO‘LGAN DAVLATLAR (2024- yil yanvar-mart, mln. AQSh dollari)











<p>XXR</p> <p>TSA – 341,8</p> <p>Eksport: 23,2 Import: 318,6</p> <p> 30,2%</p>	<p>Koreya Respublikasi</p> <p>TSA – 287,3</p> <p>Eksport: 0,1 Import: 287,2</p> <p> 25,4%</p>	<p>Rossiya Federatsiyasi</p> <p>TSA – 128,9</p> <p>Eksport: 60,7 Import: 68,2</p> <p> 11,4%</p>	<p>Qozog‘iston</p> <p>TSA – 115,1</p> <p>Eksport: 112,6 Import: 2,5</p> <p> 10,2%</p>	<p>Meksika</p> <p>TSA – 44,5</p> <p>Eksport: - Import: 44,5</p> <p> 3,9%</p>
<p>Braziliya</p> <p>TSA – 39,7</p> <p>Eksport: 0,01 Import: 39,7</p> <p> 3,5%</p>	<p>AQSH</p> <p>TSA – 32,7</p> <p>Eksport: 0,5 Import: 32,2</p> <p> 2,9%</p>	<p>Afg‘oniston</p> <p>TSA – 28,9</p> <p>Eksport: 28,9 Import: 0,01</p> <p> 2,6%</p>	<p>Qirg‘iz Respublikas</p> <p>TSA – 24,1</p> <p>Eksport: 18,3 Import: 5,8</p> <p> 2,1%</p>	<p>Turkiya</p> <p>TSA – 14,5</p> <p>Eksport: 4,3 Import: 10,2</p> <p> 1,3%</p>











Andijon viloyati jahonning 65 mamlakati bilan savdo aloqalarini amalga oshirib kelmoqda. TSAning nisbatan salmoqli hissasi XXRda (30,2 %), Koreya Respublikasida (25,4 %), Rossiya Federatsiyasida (11,4 %), Qozog‘istonda (10,2 %), Meksikada (3,9 %) va Braziliyada (3,5 %) qayd etilgan.



ANDIJON VILOYATINING YIRIK HAMKOR DAVLATLAR BILAN TASHQI SAVDO AYLANMASI DINAMIKASI


(yanvar-mart, mln. AQSh dollari)

Davlatlar	2022- y.	2023- y.	2024- y.
XXR	214,9	307,9	341,8
 <i>Eksport</i>	30,7	21,6	23,2
<i>Import</i>	184,2	286,3	318,6
Koreya Respublikasi	421,2	372,1	287,3
 <i>Eksport</i>	0,3	0,002	0,1
<i>Import</i>	420,9	372,1	287,2
Rossiya Federatsiyasi	59,5	84,3	128,9
 <i>Eksport</i>	24,3	53,6	60,7
<i>Import</i>	35,2	30,7	68,2
Qozog'iston	57,0	105,2	115,1
 <i>Eksport</i>	55,9	102,2	112,6
<i>Import</i>	1,1	3,0	2,5
Meksika	1,7	48,9	44,5
 <i>Eksport</i>	-	-	-
<i>Import</i>	1,7	48,9	44,5
Braziliya	5,7	64,3	39,7
 <i>Eksport</i>	0,1	0,1	0,01
<i>Import</i>	5,6	64,2	39,7
AQSh	9,5	43,8	32,7
 <i>Eksport</i>	0,1	0,1	0,5
<i>Import</i>	9,4	43,7	32,2
Afg'oniston	3,2	0,2	28,9
 <i>Eksport</i>	3,2	0,2	28,9
<i>Import</i>	0,004	0,003	0,01
Qirg'iz Respublikasi	81,8	79,0	24,1
 <i>Eksport</i>	75,6	71,9	18,3
<i>Import</i>	6,2	7,1	5,8
Turkiya	26,0	28,3	14,5
 <i>Eksport</i>	11,7	8,0	4,3
<i>Import</i>	14,3	20,3	10,2

Davlatlar		2022- y.	2023- y.	2024- y.
Belarus Respublikasi		1,8	7,8	10,4
	<i>Eksport</i>	0,3	5,9	9,5
	<i>Import</i>	1,5	1,9	0,9
Slovakiya		2,0	5,5	8,1
	<i>Eksport</i>	0,001	-	-
	<i>Import</i>	2,0	5,5	8,1
Ozarbayjon		3,5	5,3	7,3
	<i>Eksport</i>	3,3	5,3	7,2
	<i>Import</i>	0,2	0,0	0,1
Hindiston		8,1	17,2	6,5
	<i>Eksport</i>	0,2	0,0	0,4
	<i>Import</i>	7,9	17,2	6,1
Chexiya		6,2	6,5	5,0
	<i>Eksport</i>	-	-	-
	<i>Import</i>	6,2	6,5	5,0
Polsha		2,1	4,2	4,5
	<i>Eksport</i>	0,1	0,3	0,1
	<i>Import</i>	2,0	3,9	4,4
Pokiston		1,1	0,4	3,9
	<i>Eksport</i>	1,1	0,2	0,7
	<i>Import</i>	0,03	0,2	3,2
Germaniya		4,2	9,2	3,6
	<i>Eksport</i>	0,5	0,2	0,04
	<i>Import</i>	3,7	9,0	3,6
Vetnam		0,1	1,3	3,6
	<i>Eksport</i>	-	-	0,003
	<i>Import</i>	0,1	1,3	3,6
Eron Islom Respublikasi		3,1	2,8	2,7
	<i>Eksport</i>	0,4	0,4	0,001
	<i>Import</i>	2,7	2,4	2,7



ANDIJON VILOYATINING HUDUDLAR KESIMIDA TASHQI SAVDO AYLANMASI (2024- yil yanvar-mart)*




ViLOYATDA tashqi savdo aylanmasi tarkibida eng yuqori ulushni Asaka tumani 64,1 % ulush bilan 725,4 mln. AQSh dollarini, eng quyi ulushni esa Paxtaobod tumani 0,6 % ulush bilan 4,4 mln. AQSh dollarini tashkil etdi.

* Tabiiy gaz va elektr energiyasi yetkazib berish, shuningdek, maxsus eksport bo'yicha rasmiy statistik ma'lumotlar, O'zbekiston Respublikasi viloyatlari, shaharlar va tumanlari bo'yicha taqsimlanmagan



ANDIJON VILOYATINING TASHQI SAVDO AYLANMASIDA MDH MAMLAKATLARI VA BOSHQA XORIJIY DAVLATLARNING HAJMLARI DINAMIKASI (yanvar-mart, mln. AQSh dollari, ulushi, % da)



2024- yil yanvar-mart oylarida tashqi savdo aylanmasida MDH davlatlarining ulushi 25,6 % ni tashkil etib, tashqi savdo aylanmasidagi ulushi 2023- yilning mos davriga nisbatan 2,0 % ga kamaydi.



Andijonning boshqa xorijiy davlatlar bilan TSAsi 2024- yilning yanvar-mart oylarida 2023- yilning mos davriga nisbatan 2,0 % ga ko'paydi va jami TSAdagi ulushi 74,4 % ni tashkil etdi.

Andijon viloyatining MDH mamlakatlari bilan tashqi savdo aylanmasi 2024- yil yanvar-mart holatiga ko'ra, 289,6 mln. AQSh dollarini tashkil etdi. Shundan eksport 111,3 mln. AQSh dollariga yetgan bo'lsa, import 78,3 mln. AQSh dollari qiymatida qayd etildi.



ANDIJON VILOYATINING MDH DAVLATLARI BILAN TASHQI SAVDO AYLANMASI (2024- yil yanvar-mart, mln. AQSh dollari)



Rossiya Federatsiyasi

TSA – 128,9
Eksport – 60,7
Import – 68,2



Qozog'iston

TSA – 115,1
Eksport – 112,6
Import – 2,5



Qirg'iz Respublikasi

TSA – 24,1
Eksport – 18,3
Import – 5,8



Ozərbaycan

TSA – 7,3
Eksport – 7,2
Import – 0,1



Belarus Respublikasi

TSA – 10,4
Eksport – 9,5
Import – 0,9



Tojikiston

TSA – 1,2
Eksport – 1,0
Import – 0,2



Moldova Respublikasi

TSA – 0,6
Eksport – 0,5
Import – 0,1



Ukraina

TSA – 1,5
Eksport – 1,3
Import – 0,2



Turkmaniston

TSA – 0,4
Eksport – 0,02
Import – 0,4



Armaniston


TSA – 0,1
Eksport – 0,1
Import – -



Andijon viloyatining MDH mamlakatlari bilan tashqi savdo aylanmasining eng yuqori ulushi, Rossiya Federatsiyasi (37,3 %), Qirg'iz Respublikasi (69,8 %) hamda Qozog'iston (0,3 %) bilan qayd etildi.

ANDIJON VILOYATINING YEOIIGA A'ZO DAVLATLAR BILAN TASHQI SAVDO AYLANMASI

(yanvar-mart, mln. AQSh dollari, ulushi, % da)



Andijon viloyatining Yevroosiyo iqtisodiy ittifoqiga a'zo davlatlar bilan tashqi savdo aylanmasi 278,6 mln. AQSh dollarini tashkil etdi. Shundan, eksport hajmi 201,2 mln. AQSh dollari, import hajmi esa 77,4 mln. AQSh dollariga yetdi.

Shuni ta'kidlash lozimki, YEOIning a'zo davlatlari (Rossiya Federatsiyasi, Qozog'iston, Qirg'iz Respublikasi, Belarus va Armaniston) o'rtasida tovarlar va xizmatlar harakati, migrantlar harakatlanishi va kapital harakatining erkinligi ta'minlangan bo'lib, yagona bojxona tizimiga ega bo'lgan umumiy iqtisodiy hudud shakllantirilgan.



ANDIJON VILOYATI EKSPORTI




Xalqaro iqtisodiy aloqalarning rivojlanishi eksportning barqaror o'sishiga ko'maklashadi va bu o'z navbatida ma'lum natijalarga erishish uchun zamin yaratadi. Mamlakatning eksport salohiyatini oshirish, eksportyorlarni davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash, eksportbop mahsulotlar nomenklaturasini kengaytirish maqsadida amalga oshirilgan islohotlar natijasida eksportyorlar soni 271 taga yetdi va ular tomonidan 270,3 mln. AQSh dollari qiymatidagi (2023-yilning mos davriga nisbatan 2,8 % ga kamaydi) tovar va xizmatlar eksport qilinishi ta'minlandi.



XSST* BO'YICHA EKSPORT TARKIBI

(2024- yil yanvar-mart, ulushi, % da)



Andijon viloyatida tovarlar tashqi savdosi statistik ko'rsatkichlarini shakllantirishda, Tashqi iqtisodiy faoliyat tovar nomenklaturasi (keyingi o'rinlarda TIF TN) bilan birgalikda, Birlashgan Millatlar Tashkilotining Xalqaro standartlashgan savdo tasniflagichi (keyingi o'rinlarda – XSST) ishlatiladi. Bu o'z navbatida tahliliy maqsadlarda eksport va import qilinadigan tovarlarni 10 ta katta qismga guruhlash uchun imkon beradi. Tovarlarni XSST bo'yicha kodlashtirish, TIF TN va XSST o'rtasida o'tish kalitlari yordamida amalga oshiriladi.



ANDIJON VILOYATINING XSST BO'YICHA EKSPORTI TARKIBI

(yanvar-mart, yillar kesimida)

XSST tarkibi	mln. AQSh dollari		O'zgarish sur'ati, % da		Umumiy hajmga nisbatan, % da	
	2023	2024	2023	2024	2023	2024
Jami eksport	278,2	270,3	130,3	97,2	100,0	100,0
<i>shu jumladan:</i>						
Oziq-ovqat mahsulotlari va tirik hayvonlar	4,5	5,2	84,5	114,9	1,6	1,9
Ichimliklar va tamaki	1,2	0,7	70,8 m.	58,7	0,4	0,3
Nooziq-ovqat xomashyo, yoqilg'idan tashqari	1,7	0,5	127,9	29,1	0,6	0,2
Mineral yoqilg'i, yog'lash moylari va shunga o'xshash materiallar	0,2	27,6	8,9	113,9 m.	0,1	10,2
Hayvon va o'simliklar moylari (yog'lari), yog'lar va mumlar	0,0002	0,01	18,9 m.	41,9 m.	0,0001	0,003
Kimyoviy vositalar va shunga o'xshash mahsulotlar	7,3	1,9	8,4 m.	26,2	2,6	0,7
Sanoat tovarlari	71,1	57,9	88,7	81,6	25,5	21,4
Mashinalar va transport asbob-uskunalari	105,9	109,2	187,1	103,1	38,1	40,4
Turli xil tayyor buyumlar	83,7	65,2	129,6	77,9	30,1	24,1
Xizmatlar	2,6	2,1	139,6	81,2	1,0	0,8

Eksport tarkibida tovarlar ulushi 99,1 % ni tashkil etib, ular mashinalar va transport asbob uskunalari (40,4 %), turli xil tayyor buyumlar (24,1 %), sanoat tovarlari (21,4 %), oziq-ovqat mahsulotlari va tirik hayvonlar (1,9 %) va kimyoviy vositalar (0,7 %) hissasiga to'g'ri kelmoqda.



ANDIJON VILOYATINING XSST BO'YICHA EKSPORTI TARKIBI (2024-yil yanvar-mart)

XSST bo'limi nomi	Ming AQSh dollari	2023- yilning mos davriga nisbatan, % da
Oziq-ovqat mahsulotlari va tirik hayvonlar		
Sabzavotlar va mevalar	4 953,7	120,3
Shakar, shakardan tayyorlangan mahsulotlar va asal	217,2	119,1
Kofe, choy, kakao, ziravorlar va ulardan tayyorlangan	25,8	41,7
Donli ekinlar va ulardan tayyorlangan mahsulotlar	7,3	147,0
Ichimliklar va tamaki		
Ichimliklar	672,0	58,7
Nooziq-ovqat xomashyo, yoqilg'idan tashqari		
To'qimachilik tolalari va ularning chiqindilari	180,1	13,0
Hayvonlar va o'simliklardan kelib chiqqan xomashyo materiallari, boshqa joyda tasniflanmagan	152,7	85,8
Moy olinadigan urug'lar va moy olinadigan mevalar	118,8	111,6
Probka va yo'goch-taxtalar	28,4	10,0 m.
Mineral yoqilg'i, yog'lash moylari va shunga o'xshash materiallar		
Neft va neft mahsulotlari va shunga o'xshash materiallar	27 575,4	113,9 m.
Hayvon va o'simliklar moylari (yog'lari), yog'lar va mumlar		
O'simlik moylari va yog'lari, xom, tozalangan yoki fraksiyalangan	7,9	41,9 m.
Kimyoviy vositalar va shunga o'xshash mahsulotlar		
Boshqa joyda tasniflanmagan kimyoviy materiallar va mahsulotlar	1 465,7	21,4
Noorganik kimyo moddalari	187,3	171,1
Efir moylari, rezinoidlar va attorlik moddalari; xojatxona preparatlari, polirovkalash va yuvish vositalari	101,6	54,1
Birlamchi shaklda bo'lmagan plastmassalar	60,0	98,4
Birlamchi shakldagi plastmassalar	44,0	68,8
Bo'yaydigan va terini oshlovchi moddalar va bo'yoqlar	41,8	2,8 m.


XSST bo'limi nomi	Ming AQSh dollari	2023-yilning mos davriga nisbatan, % da
Sanoat tovarlari		
To'qimachilik yigirilgan ipi, matolar, tayyor buyumlar va shunga o'xshash mahsulotlar	37 148,6	88,3
Metallardan tayyorlangan buyumlar, boshqa joyda tasniflanmagan	706,8	79,1
Rezina buyumlari, boshqa joyda tasniflanmagan	391,1	52,0
Cho'yan va po'lat	350,7	85,5 m.
Ruda bo'lmagan qazilmalardan tayyorlangan mahsulotlar, boshqa joyda tasniflanmagan	224,1	70,5
Qog'oz, karton va qog'oz massasi, qog'oz yoki kartondan tayyorlangan buyumlar	95,5	2,2
Rangli metallar	68,9	17,5
Probka va daraxtdan tayyorlangan buyumlar (mebeldan tashqari)	26,9	18,9
Teri, boshqa joyda tasniflanmagan teridan tayyorlangan buyumlar, mo'yna	1,7	4,0 m.
Mashinalar va transport asbob-uskunolari		
Avtomobillar (shu jumladan, havo transporti vositalari)	74 422,6	112,0
Energiya generatori mashinalari va asbob-uskunalar	29 972,0	90,8
Sanoat uchun maxsus bo'lmagan mashinalar va asbob-uskunalar va ularning detallari.	2 368,7	91,4
Elektr mashinalari, apparatlar va asboblari, boshqa joyda tasniflanmagan va ularning elektr qismlari.	2 000,6	68,6
Elektr aloqasi, ovozni yozish va asboblari, boshqa joyda tasniflanmagan, va ularni elektr qismlari	166,1	150,1 m.
Kanselyariya mashinalari va ma'lumotlarni avtomatik ravishda qayta ishlash uchun asbob-uskunalar	79,1	-
Turli xil tayyor buyumlar		
Kiyim-kechaklar va ularning anjomlari	62 989,9	82,7
Har xil tayyor buyumlar, boshqa joyda tasniflanmagan	681,9	13,4
Mebel va uning qismlari, yotar-joy buyumlari, matraslar, matraslar uchun tirgaklar, yostiqlar va shunga o'xshash tikilgan mebel	609,9	89,5
Poyabzal	608,3	122,0
Maxsus, ilmiy va nazorat asboblari va apparatlari, boshqa joyda tasniflanmagan	212,9	3,1 m.
Yo'l anjomlari, sumkalar va shunga o'xshash konteynerlar	90,8	7,4
Blokli binolar, suv o'tkazish, kanalizatsiya, isitish va yoritish uskunolari uchun armatura va mahkamlash moslamalari, boshqa joyda tasniflanmagan	3,7	64,4
Fotografik apparatura, uskuna, ishlatiladigan materiallar va optik buyumlar, boshqa joyda tasniflanmagan; soatlar	2,2	61,6

Andijon tashqi savdo statistikasida sherik mamlakatlarga quyidagilar kiradi: olib kirishda - tovarlar kelib chiqqan mamlakat, agar kelib chiqqan mamlakat noaniq bo'lsa, jo'natib yuborgan mamlakat. Olib chiqishda - tovarlar yuboriladigan mamlakat hisoblanadi.

2024- yilning yanvar-mart oylarida MDH mamlakatlariga 211,3 mln. AQSh dollari qiymatidagi tovar va xizmatlar eksport qilinib, jami eksportdagi ulushi 78,2 % ini tashkil etdi.

MDH VA BOSHQA DAVLATLARGA TOVAR VA XIZMATLAR EKSPORTI HAJMLARI DINAMIKASI

(yanvar-mart, mln. AQSh dollari, ulushi, % da)



2024- yil yanvar-mart oylarida tashqi savdo aylanmasida tovarlar va xizmatlar eksporti bo'yicha asosiy hamkorlarimiz Qozog'iston, Rossiya Federatsiyasi, Afg'oniston, XXR, Qirg'iz Respublikasi, Belarus va Ozarbayjon kabi davlatlar bo'lgan. Ularning umumiy eksportdagi ulushi 96,5 % ni tashkil etdi.



VILOYAT EKSPORTIDA ASOSIY HAMKOR DAVLATLARNING ULUSHI (2024- yil yanvar-mart, % da)






ANDIJON VILOYATINING ASOSIY HAMKOR DAVLATLARGA AMALGA OSHIRGAN EKSPORTI HAJMI VA O'SISH SUR'ATLARI *(yanvar-mart, yillar kesimida)*

Davlatlar	mln. AQSh dollari		O'sish sur'ati, % da		Egallab turgan o'rni	
	2023	2024	2023	2024	2023	2024
Qozog'iston	102,2	112,6	182,7	110,2	1	1
Rossiya Federatsiyasi	53,6	60,7	2,2 m.	113,4	3	2
Afg'oniston	0,2	28,9	5,0	179,8 m.	17	3
XXR	21,6	23,1	70,3	107,4	4	4
Qirg'iz Respublikasi	71,9	18,3	95,1	25,5	2	5
Belarus	5,9	9,4	19,0 m.	161,0	6	6
Ozarbajjon	5,3	7,3	160,7	137,4	7	7
Turkiya	8,0	4,4	68,4	54,4	5	8
Ukraina	1,4	1,3	177,0	92,4	10	9
Tojikiston	3,5	1,0	4,5 m.	28,7	8	10
Pokiston	0,2	0,7	14,8	4,4 m.	18	11
Moldova Respublikasi	0,6	0,6	56,5	94,8	12	12
AQSh	0,1	0,5	2,5 m.	4,4 m.	19	13
Hindiston	0,0002	0,4	0,1	2 032,3 m.	31	14
Polsha	0,3	0,2	2,3 m.	49,2	14	15
Latviya	-	0,2	-	-	29	16
Armeniya	-	0,1	-	-	27	17
Koreya Respublikasi	0,002	0,1	0,7	43,8 m.	16	18
Ruminiya	0,002	0,1	1,1	25,5 m.	30	19
Germaniya	0,2	0,04	42,9	20,5	9	20



ANDIJON VILOYATINING HUDUDLAR KESIMIDA EKSPORTI (2024- yil yanvar-mart)*



Viloyat eksporti tarkibida eng yuqori ulushni Asaka tumani 43,2 % bilan 116,7 mln. AQSh dollarini, eng quyi ulushni esa Xonobod sh. 0,2 % bilan 0,6 mln. AQSh dollarini tashkil etdi.

* Tabiiy gaz va elektr energiyasi yetkazib berish, shuningdek, maxsus eksport va safarlar bo'yicha rasmiy statistik ma'lumotlar, O'zbekiston Respublikasi viloyatlari, tuman va shaharlari bo'yicha taqsimlanmagan.



MEVA-SABZAVOT MAHSULOTLARI EKSPORTI











Hukumat tomonidan qishloq xo'jaligi va bog'dorchilikni rivojlantirishga katta e'tibor qaratilayotgani bois eksport qilinayotgan mahsulotlar sifati va hajmi yildan-yilga ortib bormoqda. Jumladan, 2024- yil yanvar-mart oylarida 23,4 ming tonna meva va sabzavotlar eksporti amalga oshirilgan bo'lib, ushbu ko'rsatgich 2023- yilning mos davriga nisbatan 8,5 ming tonnaga ko'paydi.

Meva-sabzavot mahsulotlarining asosiy eksport bozorlari Qirg'iz Respublikasi (54,9 %), Rossiya Federatsiyasi (24,1 %), XXR (9,5 %), Qozog'iston (4,5 %) hamda Turkiya (3,8 %) davlatlari hissasiga to'g'ri kelgan.

2024- yil yanvar-mart oylarida oziq-ovqat mahsulotlarining asosiy qismi 5,2 mln. AQSh dollari qiymatidagi meva-sabzavotlar eksport qilindi. Bu ko'rsatkich 2023- yilning mos davriga nisbatan 20,4 % ga ko'paydi va jami eksportdagi ulushi 8,6 % ni tashkil etdi.



MEVA-SABZAVOT MAHSULOTLARI EKSPORTI (2024- yil yanvar-mart, o'zgarish sur'atlari, qiymatga nisbatan)

<p>Uzum (quritilgan uzumni qo'shgan holda)</p> <p>0,2 mln. AQSH dollari</p> <p>0,4 ming tonna</p> <p> ↓ 38,3 %</p>	<p>Karam</p> <p>0,8 mln. AQSH dollari</p> <p>5,1 ming tonna</p> <p> ↑ 73,5 %</p>	<p>Pomidor</p> <p>0,2 mln. AQSH dollari</p> <p>0,3 ming tonna</p> <p> ↑ 8,8 %</p>	<p>Mosh</p> <p>0,5 mln. AQSH dollari</p> <p>0,8 ming tonna</p> <p> ↑ 64,4 b.</p>
<p>Xurmo</p> <p>0,1 mln. AQSH dollari</p> <p>0,2 ming tonna</p> <p> ↑ 8,4 b.</p>	<p>Bodring</p> <p>0,4 mln. AQSH dollari</p> <p>0,4 ming tonna</p> <p> ↓ 20,9 %</p>	<p>Quritilgan meva va mangizlar</p> <p>0,2 mln. AQSH dollari</p> <p>0,1 ming tonna</p> <p> ↑ 4,7 b.</p>	<p>Piyoz</p> <p>0,1 mln. AQSH dollari</p> <p>0,8 ming tonna</p> <p> ↑ - %</p>



MEVA-SABZAVOT MAHSULOTLARINING EKSPORT GEOGRAFIYASI (2024- yil yanvar-mart)

Davlatlar	Ming tonna	Ming AQSh dollari	Ulushi, % da *
 Qirg'iz Respublikasi	19 768,9	2 885,2	54,9
 Rossiya Federatsiyasi	1 840,8	1 267,9	24,1
 XXR	712,5	496,9	9,5
 Qozog'iston	470,2	235,9	4,5
 Turkiya	111,4	201,7	3,8
 Latviya	230,9	71,0	1,4
 Afg'oniston	51,3	32,3	0,6
 BAA	73,4	28,2	0,5
 AQSh	9,7	25,1	0,5
 Pokiston	48,2	7,2	0,1
 Saudiya Arabistoni	44,7	4,4	0,1
 Ukraina	1,5	1,2	0,02

* qiymat ifodasidan



2024- yil yanvar-mart oylarida meva va sabzavotlar eksportining qiymat jihatidan eng katta hajmi Qirg'iz Respublikasiga to'g'ri keldi (meva va sabzavotlar eksporti umumiy hajmining 54,9 %), bu ko'rsatkich Rossiya Federatsiyasiga eksport hajmidan 2,3 barobar ko'p.



TO'QIMACHILIK MAHSULOTLARI EKSPORTI



So'nggi yillarda yengil sanoatda yuqori qo'shilgan qiymatdagi mahsulotlar ishlab chiqarish rivojlanib bormoqda. Yengil sanoat iqtisodiy jihatdan viloyat uchun muhim soha bo'lgani holda, aholi bandligining yuqori darajasini, shuningdek, sanoat salohiyatiga hamda davlatimizning xalqaro nufuziga hissa qo'shilishini ta'minlaydi.

To'qimachilik mahsulotlarining eksporti hajmlarining oshishi bevosita paxta xomashyosini o'rniga tayyor mahsulot ishlab chiqarish va qo'shimcha qiymat yaratish maqsadida amalga oshirilgan islohotlar natijasi sifatida qarash mumkin.


Xususan, 2024- yil yanvar-mart oylarida yakuni bo'yicha 117,7 mln. AQSh dollarilik to'qimachilik mahsulotlari eksporti amalga oshirilib, umumiy eksportning 43,6 % ini tashkil etib, o'tgan yilga nisbatan 15,4 % ga kamaydi.

Eksport qilingan to'qimachilik mahsulotlari tarkibida tayyor to'qimachilik mahsulotlari (81,5 %), ip kalava (34,1), trikotaj mato (13,8 %) asosiy ulushni egallagan. Yil boshidan 156 turdagi to'qimachilik mahsulotlari dunyoning 18 ta davlatiga eksport qilindi.



TO'QIMACHILIK MAHSULOTLARI EKSPORTI DINAMIKASI


(yanvar-mart, ming AQSh dollari)




Mamlakatimizda yangi ishlab chiqarish texnologiyalari va zamonaviy uskunalardan keng foydalanish, sohada sifat menejmenti tizimining joriy etilishi natijasida mehnat unumdorligini oshirishga xizmat qilmoqda. Bu, o'z navbatida, tayyor mahsulotlarga jahon bozorlarida o'z o'rnini topish imkonini beradi.



XIZMATLAR EKSPORTI TARKIBI (2024- yil yanvar-mart, ulushi, % da)



 Xizmatlar eksporti hajmi 2 141,0 ming. AQSh dollarini yoki jami eksport hajmining 0,8 % ini tashkil etib, 2023- yilning mos davriga nisbatan 18,8 % ga kamaydi. Xizmatlar eksporti tarkibining asosiy ulushi moliyaviy xizmatlar (38,2 %), safarlar (turizm) (36,1 %) va transport xizmatlar (16,4 %) hissasiga to'g'ri kelgan.




ANDIJON VILOYATINING IMPORTI



2024- yilning yanvar-mart oylarida import hajmi 861,8 mln. AQSh dollarini va 2023- yilning mos davriga nisbatan 9,1 % ni tashkil etdi. Import tarkibida eng katta ulush, mashinalar va transport asbob-uskunalari (58,9 %), sanoat tovarlari (19,3 %) hamda kimyoviy vositalar va shunga o'xshash mahsulotlar (6,6 %) hisobiga to'g'ri keldi.



XSST BO'YICHA IMPORT TARKIBI (2023-yil yanvar-mart, ulushi, % da)



Tovarlar importi dinamikasi tahliliga ko'ra, 2024- yilning yanvar-mart oylarida import qilingan tovarlar hajmi, o'tgan yilning mos davriga nisbatan 78,9 mln. AQSh dollariga kamaydi va 835,5 mln. AQSh dollarini tashkil etdi. Xizmatlar importi esa 26,3 mln. AQSh dollariga yetdi.



ANDIJON VILOYATINING XSST BO'YICHA IMPORTI TARKIBI (yanvar-mart, yillar kesimida)

XSST tarkibi	mln. AQSh dollari		O'sish sur'ati, % da		Umumiy hajmga nis- batan, % da	
	2023	2024	2023	2024	2023	2024
Jami import	948,1	861,8	128,8	90,9	100,0	100,0
<i>shu jumladan:</i>						
Oziq-ovqat mahsulotlari va tirik hayvonlar	4,3	9,2	111,8	2,1 m.	0,4	1,1
Ichimliklar va tamaki	0,1	0,1	121,1	83,8	0,01	0,01
Nooziq-ovqat xomashyo, yoqilg'idan tashqari	4,2	4,9	88,2	115,0	0,4	0,6
Mineral yoqilg'i, yog'lash moylari va shunga o'xshash materiallar	6,4	57,7	3,4 m.	9,0 m.	0,7	6,7
Hayvon va o'simliklar moylari (yog'lari), yog'lar va mumlar	1,5	0,3	607,5 m.	19,5	0,2	0,03
Kimyoviy vositalar va shunga o'xshash mahsulotlar	78,6	56,5	172,5	71,9	8,3	6,6
Sanoat tovarlari	176,4	166,4	118,7	94,3	18,6	19,3
Mashinalar va transport asbob- uskunalari	611,4	507,2	130,2	83,0	64,5	58,9
Turli xil tayyor buyumlar	31,4	33,2	109,5	105,6	3,3	3,8
Xizmatlar	33,8	26,3	102,1	77,9	3,6	3,0



XSST BO'LIMI BO'YICHA AYRIM MAHSULOTLAR IMPORTI TARKIBI (2024- yil yanvar-mart)

XSST bo'limi nomi	Ming AQSh dollari	2023- yilga nisbatan, % da
Oziq-ovqat mahsulotlari va tirik hayvonlar		
Donli ekinlar va ulardan tayyorlangan mahsulotlar	3 383,0	3,0 m.
Sabzavotlar va mevalar	2 121,7	173,2
Tirik hayvonlar, 03 bo'limga kiritilgan hayvonlardan tashqari	930,3	189,6
Kofe, choy, kakao, ziravorlar va ulardan tayyorlangan mahsulotlar	847,5	166,9
Shakar, shakardan tayyorlangan mahsulotlar va asal	772,3	78,6 m.
Hayvonlar uchun ozuqalar (maydalanmagan donlardan tashqari)	739,3	2,3 m.
Sut mahsulotlari va qush tuxumlari	227,6	44,4
Har xil oziq-ovqat mahsulotlari va preparatlar	222,7	2,4 m.
Ichimliklar va tamaki		
Ichimliklar	72,1	83,8
Nooziq-ovqat xomashyo, yoqilg'idan tashqari		
To'qimachilik tolalari va ularning chiqindilari	1 219,2	107,1
Hayvonlar va o'simliklardan kelib chiqqan xomashyo materiallari, boshqa joyda tasniflanmagan	1 062,9	3,1 m.
Probka va yog'och-taxtalar	951,2	71,0
Tabiiy kauchuk (sun'iy kauchuk va regeneratsiya qilingan rezina ham)	894,8	72,3
Moy olinadigan urug'lar va moy olinadigan mevalar	493,5	18,6 m.
56 bo'limga kiritilgandan tashqari o'g'itlar uchun xomashyo va mineral xomashyo (ko'mir, neft va qimmatbaho toshlardan tashqari)	147,0	115,7
Metall rudalari va metall parchalari	101,6	11,2 m.
Mineral yoqilg'i, yog'lash moylari va shunga o'xshash materiallar		
Neft va neft mahsulotlari va shunga o'xshash materiallar	51 827,4	18,0 m.
Ko'mir, koks va briketlar	3 589,7	101,0
Tabiiy yoki sun'iy gaz	2 269,2	-
Hayvon va o'simliklar moylari (yog'lari), yog'lar va mumlar		
O'simlik moylari va yog'lari (xom, tozalangan yoki fraksiyalangan)	289,2	21,0
Hayvonlar va o'simliklar moylari va yog'lari, qayta ishlangan; hayvonlar va o'simliklardan kelib chiqqan mumlar	3,2	2,6
Kimyoviy vositalar va shunga o'xshash mahsulotlar		
Noorganik kimyo moddalari	20 066,7	62,9
Birlamchi shakldagi plastmassalar	12 061,6	98,6
Boshqa joyda tasniflanmagan kimyoviy materiallar va mahsulotlar	9 031,4	62,9
Bo'yaydigan va terini oshlovchi moddalar va bo'yoqlar	6 949,1	80,1
Birlamchi shaklda bo'lmagan plastmassalar	2 683,7	91,1
Tibbiyot va farmatsevtika mahsulotlari	2 568,1	112,7
Organik kimyo moddalari	2 554,2	55,7
Efir moylari, rezinoidlar va attorlik moddalari; xojatxona preparatlari, polirovkalash va yuvish vositalari	562,5	2,2 m.


XSST bo'limi nomi	Ming AQSh dollari	2023- yilga nisbatan, % da
Sanoat tovarlari		
Cho'yan va po'lat	72 999,9	158,9
Metallardan tayyorlangan buyumlar, boshqa joyda tasniflanmagan	36 780,5	98,8
Rezina buyumlari, boshqa joyda tasniflanmagan	36 014,9	53,5
To'qimachilik yigirilgan ipi, matolar, tayyor buyumlar va shunga o'xshash mahsulotlar	13 341,6	80,9
Ruda bo'lmagan qazilmalardan tayyorlangan mahsulotlar, boshqa joyda tasniflanmagan	4 425,0	87,0
Rangli metallar	1 896,5	62,4
Teri, boshqa joyda tasniflanmagan teridan tayyorlangan buyumlar, mo'yna	451,6	2,6 m.
Probka va daraxtdan tayyorlangan buyumlar (mebeldan tashqari)	335,0	37,9
Qog'oz, karton va qog'oz massasi, qog'oz yoki kartondan tayyorlangan buyumlar	166,9	55,0
Mashinalar va transport asbob-uskunolari		
Avtomobillar (havo podushkalaridagi transport vositalari ham)	316 997,8	73,5
Elektr mashinalari, apparatlar va asboblari, boshqa joyda tasniflanmagan, va ularning elektr qismlari (boshqa joyda tasniflanmagan elektr maishiy asboblarning elektr bo'lmagan qismlari ham)	55 639,9	151,5
Energiya generatori mashinalari va asbob-uskunalar	40 329,0	183,3
Sanoat uchun maxsus bo'lmagan mashinalar va asbob-uskunalar va ularning detallari, boshqa joyda tasniflanmagan	38 992,3	74,3
Aniq sohalar uchun maxsus mo'ljallangan mashinalar	19 444,4	42,7
Kanslyariya mashinalari va ma'lumotlarni avtomatik ravishda qayta ishlash uchun asbob-uskunalar	16 696,1	154,2
Elektr aloqasi, ovozni yozish va ovozni eshittirish apparaturalari va uskunolari	9 702,5	130,3
Metallarni qayta ishlash mashinalari	8 569,0	2,1 m.
Boshqa transport uskunolari	869,1	74,0
Turli xil tayyor buyumlar		
Maxsus, ilmiy va nazorat asboblari va apparatlari, boshqa joyda tasniflanmagan	13 837,0	79,2
Mebel va uning qismlari, yotar-joy buyumlari, matraslar uchun tirgaklar, yostiqlar va shunga o'xshash tikilgan mebel	10 523,9	133,0
Har xil tayyor buyumlar, boshqa joyda tasniflanmagan	5 091,1	105,2
Blokli binolar, suv o'tkazish, kanalizatsiya, isitish va yoritish uskunolari uchun armatura va mahkamlash moslamalari, boshqa joyda tasniflanmagan	2 833,9	13,0 m.
Poyabzal	348,0	89,1
Kiyim-kechaklar va kiyim-kechak anjomlari	275,1	76,5
Yo'l anjomlari, sumkalar va shunga o'xshash konteynerlar	211,3	146,7
Fotografik apparatura, uskuna, ishlatiladigan materiallar va optik buyumlar, boshqa joyda tasniflanmagan; soatlar	53,1	64,7



2024- yil yanvar-mart natijalariga ko'ra, MDH mamlakatlaridan import ulushi 9,1 % ni tashkil etib, 2023- yilning mos davriga nisbatan 4,5 % ga ko'paydi.

MDH VA BOSHQA DAVLATLARDAN TOVAR VA XIZMATLAR IMPORTI HAJMLARI DINAMIKASI

(yanvar-mart, mln. AQSh dollari, ulushi, % da)



2024- yil yanvar-mart oylarida Andijon viloyati 55 ta davlatdan tovar va xizmatlar importini amalga oshirdi. Yetti yirik hamkor davlatlar (XXR, Koreya Respublikasi, Rossiya Federatsiyasi, Meksika, Braziliya, AQSh va Turkiya) jami importning 1/3 qismini tashkil etdi.



VILOYAT IMPORTIDA ASOSIY HAMKOR DAVLATLARNING ULUSHI (2024- yil yanvar-mart, % da)






ANDIJON VILOYATINING ASOSIY HAMKOR DAVLATLARDAN AMALGA OSHIRGAN IMPORTI HAJMLARI VA O'SISH SUR'ATLARI (yanvar-mart, yillar kesimida)

Davlatlar	mln. AQSh dollari		O'sish sur'ati, % da		Umumiy hajmdagi o'rni	
	2023	2024	2023	2024	2023	2024
XXR	286,3	318,6	155,4	111,3	2	1
Koreya Respublikasi	372,1	287,2	88,4	77,2	1	2
Rossiya Federatsiyasi	30,7	68,2	87,1	2,2 m.	6	3
Meksika	48,9	44,5	29,2 m.	91,0	4	4
Braziliya	64,2	39,7	11,4 m.	61,9	3	5
AQSh	43,7	32,2	4,6 m.	73,7	5	6
Turkiya	20,3	10,2	141,6	50,1	7	7
Slovakiya	5,5	8,1	2,8 m.	146,8	12	8
Hindiston	17,2	6,1	2,2 m.	35,5	8	9
Qirg'iz Respublikasi	7,1	5,8	115,4	82,0	10	10
Chexiya	6,5	5,0	105,5	77,5	11	11
Polsha	3,9	4,4	197,6	112,0	13	12
Vetnam	1,3	3,6	14,7 m.	2,8 m.	21	13
Germaniya	9,1	3,6	2,4 m.	39,3	9	14
Pokiston	0,2	3,2	7,7 m.	14,5 m.	38	15
Eron Islom Respublikasi	2,4	2,7	88,3	113,2	18	16
Italiya	3,1	2,5	67,8	81,7	15	17
Qozog'iston	3,0	2,5	2,7 m.	81,5	16	18
Tailand	3,3	2,3	95,8	68,4	14	19
Malayziya	0,3	1,3	34,4 m.	4,7 m.	37	20



ANDIJON VILOYATINING HUDUDLAR KESIMIDA IMPORTI

(2024- yil yanvar-mart)




Viloyat importi tarkibida eng yuqori ulushni Asaka tumani 72,7 % bilan 608,7 mln. AQSh dollarini, eng quyi ulushni esa Ulug'nor tumani 0,01 % bilan 0,1 mln. AQSh dollarini tashkil etdi.



XIZMATLAR IMPORTI TARKIBI

(2024- yil yanvar-mart, ulushi, % da)




2024- yilning yanvar-mart oylari yakuni bilan xizmatlar importi hajmi 26,3 mln. AQSh dollarini yoki jami import hajmining 3,1 % ini tashkil etdi va o'tgan yilga nisbatan 22,1 % ga kamaydi. Xizmatlar importi tarkibining asosiy ulushi Intellectul mulkdan foydalanganlik uchun to'lovlar, boshqa joyda tasniflanmagan (84,6 %), ta'mirlash va texnik xizmat ko'rsatish, boshqa joyda tasniflanmagan (4,1 m.) ga tegishli bo'ldi.




SANOAT MAHSULOTLARI IMPORTI

2024- yil yanvar-mart oylarida import tarkibida sanoat mahsulotlari tovarlari hajmi 166,4 mln. AQSh dollarini tashkil etib, o'tgan yilning shu davriga nisbatan 10,0 % ga kamaydi hamda importning umumiy hajmidagi ulushi 19,3 % ga yetdi.



SANOAT MAHSULOTLARI IMPORT QILINGAN ASOSIY HAMKOR DAVLATLAR

(2024- yil yanvar-mart, ulushi, % da)



Sanoat mahsulotlari importi asosan cho'yan yoki legirlanmagan po'lat (73,0 mln. AQSh dollari), metallardan tayyorlangan buyumlar (36,8 mln. AQSh dollari), rezina buyumlari (36,0 mln. AQSh dollari), to'qimachilik yigirilgan ipi, matolar, tayyor buyumlar va shunga o'xshash mahsulotlar (13,3 mln. AQSh dollari) va boshqalardan tashkil topgan.